



KORXONALARDA DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI BARTARAF ETISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK VA AMALIY YONDASHUVLAR

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR ELIMINATING ACCOUNTS RECEIVABLE AND ACCOUNTS PAYABLE IN ENTERPRISES: THEORETICAL, METHODOLOGICAL AND PRACTICAL APPROACHES

¹Mirzayev Ozod Furkatovich

¹Toshkent Kimyo-texnologiya instituti, "Sanoat iqtisodiyoti" kafedrası dotsenti. **ORCID:** 0009-0000-5258-7526,
G-mail: abubakrm90@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarni shakllantirish, baholash, monitoring qilish, boshqarish va bartaraf etishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda debitorlik va kreditorlik qarzlarning o'zaro mutanosibligi, aylanma mablag'lardan samarali foydalanish hamda to'lov intizomini mustahkamlashning ahamiyati asoslangan. Qarzdorlikning hajmi, tarkibi, muddatliligi, aylanish tezligi, risk darajasi va moliyaviy natijalarga ta'sirini kompleks baholashga asoslangan yondashuv taklif etilgan. Tadqiqotda DSO, DPO, CCC, muddati o'tgan qarzdorlik ulushi hamda integral qarzdorlik samaradorligi indeksi kabi ko'rsatkichlar tizimlashtirilgan. Shuningdek, debitorlarni risk darajasi bo'yicha segmentatsiya qilish, qarzdorlikning yuzaga kelishini oldindan prognozlash va iqtisodiy jihatdan optimal darajasini belgilashga asoslangan integral, riskka asoslangan hamda prognozli metodologiya ishlab chiqilgan. Taklif etilgan metodologiya qarzdorlikni reaktiv boshqarishdan profilaktik va prognozli boshqaruvga o'tish, likvidlik, rentabellik va pul oqimlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Eng. - This article examines the theoretical and methodological foundations of the formation, assessment, monitoring, management, and elimination of accounts receivable and accounts payable in enterprises. The study substantiates the importance of maintaining a balanced relationship between receivables and payables, ensuring the efficient use of working capital, and strengthening payment discipline in order to support the financial stability of an enterprise. An approach based on a comprehensive assessment of the volume, structure, maturity, turnover rate, risk level, and impact of indebtedness on financial performance is proposed. The study systematizes indicators such as DSO, DPO, CCC, the share of overdue debt, and the integral debt efficiency index. In addition, an integrated, risk-based, and forecasting-oriented methodology is developed, based on segmenting debtors by risk level, forecasting the emergence of indebtedness in advance, and determining its economically optimal level. The proposed methodology facilitates a transition from reactive debt management to preventive and forecasting-oriented management and contributes to maintaining a balance among liquidity, profitability, and cash flows.

Kalit so'zlar:

Keywords:

❖ *debitorlik qarzlari, kreditorlik qarzlari, aylanma kapital, likvidlik, to'lov qobiliyati, moliyaviy barqarorlik, DSO, DPO, CCC, kredit riski, qarzdorlik portfeli, risk segmentatsiyasi, ekonometrik tahlil.*

❖ *accounts receivable, accounts payable, working capital, liquidity, solvency, financial stability, DSO, DPO, CCC, credit risk, debt portfolio, risk segmentation, econometric analysis.*

Kirish.

Bugungi kunda raqobat muhitining kuchayishi, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi hisob-kitob munosabatlarining murakkablashuvi va moliyaviy resurslar harakatining jadallashuvi korxonalarining to'lov intizomi hamda aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini ta'minlash masalalarini dolzarblashtirmoqda. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning hajmi, tarkibi va muddatlarini samarali boshqarish likvidlik, to'lov qobiliyati, moliyaviy barqarorlik va investitsion imkoniyatlarga bevosita ta'sir qiladi.

Debitorlik qarzlarning asossiz o'sishi aylanma mablag'larni muomaladan vaqtincha chiqarib, pul oqimlarining nomutanosibligiga olib kelishi mumkin. Kreditorlik qarzlarning haddan tashqari ko'payishi esa kontragentlar oldidagi majburiyatlarni bajarish, kreditga layoqatlilik va to'lov intizomiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimolini oshiradi. Shuning uchun ushbu ikki turdagi qarzdorlikni yagona hisob-kitoblar tizimining o'zaro bog'liq elementlari sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Ilmiy adabiyotlarda aylanma kapitalni boshqarishning samaradorligi korxona rentabelligi bilan bog'liq ekani ko'rsatiladi; biroq mazkur bog'liqlik tarmoq, biznes modeli va bozor sharoitiga qarab farq qilishi mumkin [1, 2, 3]. Demak, qarzdorlikni boshqarishda universal me'yorlardan ko'ra differensial yondashuv zarur.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarni shakllantirish va boshqarish jarayonlarini kompleks baholash asosida ularni bartaraf etish metodologiyasini takomillashtirish, qarzdorlikning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini aniqlash va qarzdorlikni

minimallashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy mexanizmni ishlab chiqish maqolaning asosiy maqsadi sifatida belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Debitorlik qarzlarni boshqarishning nazariy asoslari tovarlar, ishlar va xizmatlarni kreditga realizatsiya qilish siyosati bilan bog'liq. Debitorlik bir vaqtning o'zida kelgusida pul tushumini ta'minlovchi aktiv va likvidlik hamda kredit riskini yuzaga keltiruvchi resurs hisoblanadi. Shu sababli kredit siyosatida sotuvni oshirishdan olinadigan samara bilan qarzdorlik ortishi natijasidagi risk o'rtasida muvozanatni ta'minlash muhim [4].

Kreditorlik qarzlari korxonaning qisqa muddatli moliyalashtirish manbasi sifatida muayyan imkoniyatlar yaratadi. Savdo krediti korxonaga tashqi moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishi mumkin, ammo majburiyatlarning ortishi likvidlik, penya-jarima va kontragentlar bilan munosabatlar bo'yicha risklarni oshiradi [5].

Aylanma kapitalni boshqarish konsepsiyasida debitorlik va kreditorlik qarzlari yagona operatsion siklning tarkibiy qismlari sifatida qaraladi. Richards and Laughlin [6] tomonidan taklif etilgan Cash Conversion Cycle (CCC) yondashuvi zaxiralar, debitorlik va kreditorlik aylanishini birlashtirib, operatsion jarayonda mablag'larning qancha vaqt band bo'lib qolishini baholash imkonini beradi.

Keyingi empirik tadqiqotlarda aylanma kapital elementlari va rentabellik o'rtasidagi munosabat o'rganilib, debitorlikni undirish, zaxiralarni aylantirish va kreditorlikni to'lash davrlarining moliyaviy natijalarga ta'siri tahlil qilingan [7, 8, 9]. Ushbu tadqiqotlar

qarzdorlikni faqat hajm bo'yicha emas, balki aylanish tezligi va iqtisodiy samaradorligi bo'yicha baholash zarurligini ko'rsatadi.

Baños-Caballero, García-Teruel and Martínez-Solano [10] aylanma kapitalning optimal darajasi mavjud bo'lishi mumkinligini asoslaydi. Bu yondashuv qarzdorlikni mutlaq nolga tushirish emas, balki likvidlik va rentabellik o'rtasidagi maqbul nuqtani aniqlash g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston sharoitida xalqaro yondashuvlarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish cheklangan bo'lishi mumkin, chunki hisob-kitob intizomi, shartnomaviy munosabatlar, tarmoq xususiyatlari va institutsional muhit o'ziga xosdir. Shuning uchun xalqaro metodologiyani milliy iqtisodiy sharoitga moslashtirish muhim.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompleks va riskka asoslangan yondashuvlar tashkil etadi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari korxonaning aylanma kapitali, operatsion faoliyati, pul oqimlari, likvidligi va moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq yagona hisob-kitoblar tizimi sifatida baholanadi.

Tadqiqot obyekti — korxonalarning debitorlik va kreditorlik qarzlari bilan bog'liq hisob-kitob munosabatlari.

Tadqiqot predmeti — qarzdorlikni shakllantirish, baholash, boshqarish va bartaraf etish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar hamda ularni takomillashtirish metodologiyasi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Asosiy gipoteza shundan iboratki, debitorlik va kreditorlik qarzlarni aylanma kapital va pul oqimlari bilan integratsiyalashgan holda baholash ularni alohida boshqarishga nisbatan likvidlik va moliyaviy barqarorlikni samaraliroq ta'minlaydi.

Asosiy ko'rsatkichlar. Debitorlik qarzlarning o'sish sur'ati:

$$T_DR = (DR_t / DR_{\{t-1\}}) \times 100$$

Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti va o'rtacha undirish davri:

$$K_DR = S / DR; DSO = (DR / S) \times 365$$

Kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsienti va o'rtacha to'lash davri:

$$K_CR = COGS / CR; DPO = (CR / COGS) \times 365$$

Bu erda S — kreditga realizatsiya qilingan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar hajmi; DR — o'rtacha debitorlik qarzi; COGS — sotilgan mahsulotlar tannarxi; CR — o'rtacha kreditorlik qarzi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarning o'zaro mutanosibligi:

$$K_DC = DR / CR$$

Ushbu koeffitsient mustaqil qaror mezonidir emas; u DSO, DPO, likvidlik va operatsion pul oqimi bilan birgalikda talqin qilinadi.

Naqd pul aylanma sikli va qarzdorlik sifati. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning pul mablag'lariga ta'sirini kompleks baholash uchun Cash Conversion Cycle (CCC) qo'llaniladi. U aylanma kapitalda mablag'larning operatsion jarayonda band bo'lib qolish davrini ifodalaydi [6].

$$CCC = DIO + DSO - DPO$$

DIO — zaxiralarning aylanish davri; DSO — debitorlik qarzlarni undirish davri; DPO — kreditorlik qarzlarni to'lash davri. CCCning ortishi, boshqa shartlar o'zgarmagan holda, korxona mablag'larining operatsion siklda uzoqroq band bo'lib qolishini anglatadi.

Shu bilan birga, CCCni mexanik ravishda minimallashtirish to'g'ri emas. Debitorlik muddatini haddan tashqari qisqartirish sotuv hajmiga, kreditorlik muddatini haddan tashqari uzaytirish esa ta'minot barqarorligi va kontragentlar bilan munosabatlarga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Optimal nuqta korxonaning tarmog'i, biznes modelii va bozor pozitsiyasiga bog'liq [10].

Muddati o'tgan qarzdorlik. Debitorlik qarzlarning sifati aging analysis orqali baholanadi. Qarzlar 0-30, 31-60, 61-90, 91-180 va 180 kundan ortiq muddatlarga

ajratiladi. Muddati o'tgan qarzдорlik ulushi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{OD} = (DR_{overdue} / DR) \times 100$$

Ko'rsatkichning yuqoriligi undirish muammosidan tashqari, kredit siyosati va kontragentlarni tanlash mexanizmidagi kamchiliklar borligini ko'rsatishi mumkin. Shu sababli qarzni bartaraf etish choralari muddat o'tib ketganidan keyin emas, balki profilaktik bosqichda boshlanishi kerak.

Kreditorlik qarzlarini baholash. DPOning me'yordan ortiq uzayishi qisqa muddatda likvidlikni saqlashga yordam berishi mumkin, ammo uzoq muddatda to'lov intizomi va kreditga layoqatlilikka salbiy ta'sir qilishi ehtimoli bor. Shuning uchun kreditorlik qarzlarini boshqarishda maksimal tez to'lash yoki maksimal kechiktirish emas, balki pul oqimi va shartnoma majburiyatlariga mos optimal muddat tanlanadi.

1-jadval

Korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarini kompleks baholash ko'rsatkichlari [4, 6, 10]

Ko'rsatkich	Hisoblash / baholash mazmuni	Iqtisodiy mazmuni	Boshqaruv qarori
DSO – debitorlik qarzlarini undirish davri	$DSO = (DR / S) \times 365$	Sotilgan mahsulot va xizmatlar bo'yicha mablag'larning korxonaga qaytish tezligini ifodalaydi	Undirish muddatlarini nazorat qilish, kredit limitlarini qayta ko'rib chiqish
DPO – kreditorlik qarzlarini to'lash davri	$DPO = (CR / COGS) \times 365$	Korxonaning yetkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarini bajarish muddatini tavsiflaydi	To'lov grafiklarini pul oqimlari bilan muvofiqlashtirish
CCC – naqd pul aylanma sikli	$CCC = DIO + DSO - DPO$	Aylanma mablag'larning operatsion siklda qancha vaqt band bo'lishini ko'rsatadi	Aylanma kapitaldan foydalanishni optimallashtirish
Muddati o'tgan debitorlik qarzlar ulushi	$K_{OD} = (DR_{overdue} / DR) \times 100$	Debitorlik portfelining sifati va qarzlarini undirish bilan bog'liq risk darajasini ifodalaydi	Aging analysis, erta ogohlantirish va differensial undirish choralari qo'llash
Debitorlik va kreditorlik qarzlar nisbati	$K_{DC} = DR / CR$	Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining o'zaro mutanosibligini tavsiflaydi	Likvidlik, DSO, DPO va operatsion pul oqimi bilan kompleks baholash
Debitorning risk indeksi	$R_i = \sum(w_i \times Z_i)$	Kontragentning moliyaviy holati, to'lov tarixi va qarzni undirish ehtimolini umumlashtiradi	Debitorlarni past, o'rta va yuqori risk segmentlariga ajratish
Integral qarzдорlik samaradorligi indeksi	$I_{DM} = \sum(w_j \times Z_j)$	Qarzдорlikni bir nechta moliyaviy va operatsion indikatorlar asosida kompleks baholaydi	Qarzдорlikni boshqarish samaradorligini yuqori, o'rta va past darajalarga ajratish

Qarzдорlikni risk bo'yicha segmentatsiya qilish. Zamonaviy yondashuvda barcha debitorlarni bir xil ishonchli kontragent sifatida qabul qilish samarali emas. Debitorlar moliyaviy holati, to'lov tarixi, shartnoma shartlariga rioya qilishi, qarz muddati, qarz summasi, portfeldagi ulushi va undirish ehtimoli asosida baholanadi.

$$R_i = w_1 Z_1 + w_2 Z_2 + \dots + w_n Z_n$$

R_i – i-kontragentning umumiy risk indeksi; Z_i – normallashtirilgan

ko'rsatkichlar; w_i – vazn koeffitsientlari. Natijada kontragentlar shartli ravishda past, o'rta va yuqori riskli segmentlarga ajratiladi.

- Past riskli kontragentlar – standart kredit va to'lov shartlari.

- O'rta riskli kontragentlar – kredit limitini cheklash va qisqa muddatli to'lov shartlari.

- Yuqori riskli kontragentlar – oldindan to'lov, qisman avans, kafolat yoki boshqa ta'minlovchi mexanizmlar.

Bunday segmentatsiya muddati o'tgan qarzdorlikni pasaytirish va undirish choralari differentsiatsiyalash imkonini beradi. Savdo krediti shartlarini kontragentning xususiyatlariga moslashtirish debitorlik portfelini samarali boshqarishda muhim hisoblanadi [4].

Qarzdorlikning moliyaviy natijalarga ta'siri. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning korxona rentabelligiga ta'sirini baholash uchun ko'p omilli regressiya modeli taklif etiladi:

$$ROA_{it} = \beta_0 + \beta_1 DSO_{it} + \beta_2 DPO_{it} + \beta_3 CCC_{it} + \beta_4 LEV_{it} + \beta_5 SIZE_{it} + \beta_6 GROWTH_{it} + \varepsilon_{it}$$

ROA — aktivlar rentabelligi; LEV — moliyaviy leveraj; SIZE — korxona hajmi; GROWTH — sotuv o'sish sur'ati. Model qarzdorlikni boshqarish ko'rsatkichlarining moliyaviy natijalarga ta'sirini statistik jihatdan baholash imkonini beradi. Aylanma kapital samaradorligi va firma qiymati o'rtasidagi munosabat empirik tadqiqotlarda ham keng o'rganilgan [9, 11].

Integral qarzdorlik samaradorligi indeksi. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni kompleks baholash uchun integral qarzdorlik samaradorligi indeksi taklif etiladi. Indeks bir nechta o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarni yagona baholash tizimiga birlashtiradi.

$$I_{DM} = \sum(w_j Z_j), \sum w_j = 1$$

Indeks tarkibiga quyidagi ko'rsatkichlar kiritiladi:

- DSO — debitorlik qarzlarni undirish davri;
- DPO — kreditorlik qarzlarni to'lash davri;
- CCC — naqd pul aylanma sikli;
- muddati o'tgan debitorlik qarzlari ulushi;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsientlari;
- operatsion pul oqimining qarzdorlikka nisbati;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarning o'zaro mutanosibligi.

Indeks natijalari asosida korxonalar qarzdorlikni boshqarish samaradorligi bo'yicha yuqori, o'rta va past darajalarga ajratilishi mumkin. Ushbu yondashuv korxona qarzdorligini bitta koeffitsient orqali emas, balki bir nechta moliyaviy va operatsion indikatorlar tizimi orqali baholash imkonini beradi.

Optimal qarzdorlik darajasi. Tadqiqotda qarzdorlikni maksimal darajada qisqartirish emas, balki korxona uchun iqtisodiy jihatdan optimal darajani aniqlash tamoyili qabul qilinadi. Optimallik likvidlik, rentabellik, operatsion pul oqimi va kontragentlar bilan munosabatlarning birgalikdagi natijasi asosida baholanadi.

$$\max (ROA, ROE, OCF), CCC \rightarrow CCC^*$$

CCC* — korxona uchun maqbul naqd pul aylanma sikli. Bu yondashuv aylanma kapitalning iqtisodiy optimal darajasi mavjud bo'lishi mumkinligi haqidagi ilmiy xulosalarga mos keladi [3].

Demak, maqsad qarzlarni nolga tushirish emas, balki likvidlik, rentabellik, pul oqimi va biznes manfaatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashdir. Debitorlik qarzi ma'lum darajada sotuvni qo'llab-quvvatlashi, kreditorlik qarzi esa qisqa muddatli moliyalashtirish manbai bo'lishi mumkin [12, 13].

Taklif etilayotgan metodologik algoritm. Tadqiqot natijasida debitorlik va kreditorlik qarzlarni boshqarish va bartaraf etishning quyidagi bosqichma-bosqich algoritmi shakllantirildi:

- 1-bosqich — Aniqlash: qarzdorlikning hajmi va tarkibini aniqlash.
- 2-bosqich — Tasniflash: muddati, kontragent va iqtisodiy mazmuniga ko'ra tasniflash.
- 3-bosqich — Baholash: DSO, DPO, CCC, likvidlik va aylanish koeffitsientlarini hisoblash.
- 4-bosqich — Riskni baholash: debitorlarni risk darajasi bo'yicha segmentatsiya qilish.

- 5-bosqich — Prognozlash: qarzdorlikning kelgusi dinamikasi va ehtimoliy muammolarni aniqlash.

- 6-bosqich — Optimallashtirish: debitorlik va kreditorlik qarzlarning maqbul darajasini belgilash.

- 7-bosqich — Boshqaruv choralari: undirish, qayta kelishish, oldindan to'lov, kafolat, kredit limiti va to'lov grafiklarini joriy etish.

- 8-bosqich — Monitoring: amalga oshirilgan choralarning natijadorligini muntazam baholash.

Metodologiyaning prinsipial farqi shundaki, u qarzdorlikni paydo bo'lganidan keyin bartaraf etish bilan cheklanmaydi. Asosiy e'tibor qarzning paydo bo'lishini boshqarish, riskni oldindan aniqlash, optimal darajani belgilash va natijani monitoring qilishga qaratiladi.

Amaliy boshqaruv choralari. Korxonalarda kontragentlarni kreditga layoqatlilik va risk darajasi bo'yicha baholash, debitorlik qarzlarni muddatlar bo'yicha muntazam segmentatsiya qilish, erta ogohlantirish indikatorlarini joriy etish va individual kredit limitlarini belgilash maqsadga muvofiq. Kreditorlik majburiyatlari prognoz qilinayotgan pul oqimlari bilan muvofiqlashtirilishi lozim.

Shuningdek, DSO, DPO va CCCni moliyaviy monitoring tizimiga kiritish, qarzdorlikning optimal nisbatini tarmoq xususiyatlari va operatsion sikldan kelib chiqqan holda belgilash hamda integral indeks asosida samaradorlikni muntazam baholash tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalari debitorlik qarzlarning mutlaq hajmidan ko'ra, uning aylanish tezligi va pul oqimlariga ta'siri ko'proq axborot berishini ko'rsatadi. DSOning ortishi realizatsiya qilingan mahsulotlar uchun pul mablag'larining qaytish davri uzayganini va aylanma mablag'larning debitorlar ixtiyorida band bo'lib qolishini anglatadi. Shu sababli qarzdorlikni kamaytirishning o'zi maqsad

emas; asosiy maqsad iqtisodiy jihatdan asoslangan darajada pul mablag'lari aylanishini tezlashtirishdir.

Kreditorlik qarzlarning samaradorligi ham mutlaq miqdor emas, balki to'lov muddati, operatsion pul oqimi va shartnomaviy majburiyatlar bilan muvofiqlik orqali baholanadi. DPOning ma'lum darajagacha ortishi ichki likvidlikni qo'llab-quvvatlashi mumkin, ammo haddan tashqari uzayish kontragentlar bilan munosabatlar va kreditga layoqatlilikka salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarning o'zaro nisbati ham sifat jihatidan baholanishi zarur. Debitorlik qarzining kreditorlik qarzidan yuqori bo'lishi o'z-o'zidan ijobiy holat emas: agar debitorlikning katta qismi muddati o'tgan va undirilishi qiyin qarzlardan iborat bo'lsa, bunday nisbat moliyaviy barqarorlikni anglatmaydi.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri — qarzdorlikni reaktiv boshqaruvdan profilaktik va prognozli boshqaruvga o'tkazishdir. Kontragent bilan shartnoma tuzish bosqichida kreditga layoqatlilikni baholash, kredit limitini belgilash, to'lov muddatlarini differentsiatsiya qilish va riskka mos ta'minlovchi mexanizmlardan foydalanish muddati o'tgan qarzdorlik ehtimolini kamaytiradi.

Asosiy ilmiy-amaliy natijalar:

- debitorlik va kreditorlik qarzlarni aylanma kapital va pul oqimlari bilan integratsiyalashgan holda boshqarish asoslandi;

- qarzdorlikni hajm, aylanish, muddat va sifat tarkibi bo'yicha kompleks baholash zarurligi aniqlandi;

- debitorlarni risk darajasi bo'yicha segmentatsiya qilish va differensial undirish mexanizmi taklif etildi;

- muddati o'tgan qarzdorlikni oldindan aniqlashga asoslangan profilaktik boshqaruv yondashuvi shakllantirildi;

- DSO, DPO, CCC va muddati o'tgan qarzdorlik ulushini integral baholash tizimiga birlashtirish taklif etildi;

• qarzidorlikni maksimal qisqartirish o'rniga optimal daraja mezoni asoslandi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tadqiqot debitorlik va kreditorlik qarzlarni boshqarishni faqat hisob-kitob intizomi yoki muddati o'tgan qarzlarni undirish masalasi sifatida emas, balki aylanma kapital, pul oqimlari, likvidlik, to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorlik bilan uzviy bog'liq bo'lgan kompleks boshqaruv tizimi sifatida qarash zarurligini ko'rsatdi.

Tadqiqotning asosiy natijasi sifatida integral, riskka asoslangan va prognozli metodologiya taklif etildi. U "aniqlash – tasniflash – baholash – riskni identifikatsiya qilish – prognozlash – optimallashtirish – monitoring" bosqichlariga asoslanadi. Ushbu yondashuv qarzidorlikning mavjud holatini emas, balki uning kelib chiqish ehtimoli va moliyaviy oqibatlarini ham hisobga olish imkonini beradi.

Samarali boshqaruv mezoni qarzidorlikni nolga tushirish emas, balki likvidlik, rentabellik, operatsion pul oqimi va

kontragentlar bilan barqaror munosabatlar o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlashdan iborat. Shu nuqtai nazardan DSO, DPO va CCC kabi ko'rsatkichlarni integral indeks bilan birgalikda qo'llash boshqaruv qarorlarining sifatini oshiradi.

Amaliyotda kontragentlarni risk bo'yicha baholash, aging analysis, individual kredit limitlari, erta ogohlantirish indiktorlari, pul oqimiga mos to'lov grafiklari va integral monitoring tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Bunday mexanizmlar to'lov intizomini mustahkamlash, muddati o'tgan qarzidorlikni qisqartirish, aylanma mablag'lar aylanishini tezlashtirish va moliyaviy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusida mazkur yondashuvni tarmoqlar kesimida differensiatsiyalash, optimal qarzidorlik darajasini ekonometrik modellar asosida aniqlash, sun'iy intellekt va prognozlash texnologiyalari orqali kontragentlarning defolt ehtimolini baholash hamda raqamli moliyaviy monitoring tizimlariga integratsiya qilish istiqbolli yo'nalishlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Deloof M. Does working capital management affect profitability of Belgian firms? // *Journal of Business Finance & Accounting*. – 2003. – Vol. 30, No. 3-4. – P. 573-588.
2. García-Teruel P. J., Martínez-Solano P. Effects of working capital management on SME profitability // *International Journal of Managerial Finance*. – 2007. – Vol. 3, No. 2. – P. 164-177.
3. Baños-Caballero S., García-Teruel P. J., Martínez-Solano P. Working capital management, corporate performance, and financial constraints // *Journal of Business Research*. – 2014. – Vol. 67, No. 3. – P. 332-338.
4. Mian S. L., Smith C. W. Accounts receivable management policy: Theory and evidence // *The Journal of Finance*. – 1992. – Vol. 47, No. 1. – P. 169-200.
5. Petersen M. A., Rajan R. G. Trade credit: Theories and evidence // *The Review of Financial Studies*. – 1997. – Vol. 10, No. 3. – P. 661-691.
6. Richards V. D., Laughlin E. J. A cash conversion cycle approach to liquidity analysis // *Financial Management*. – 1980. – Vol. 9, No. 1. – P. 32-38.
7. Shin H. H., Soenen L. Efficiency of working capital management and corporate profitability // *Financial Practice and Education*. – 1998. – Vol. 8, No. 2. – P. 37-45.
8. Lazaridis I., Tryfonidis D. Relationship between working capital management and profitability of listed companies in the Athens Stock Exchange // *Journal of Financial Management and Analysis*. – 2006. – Vol. 19, No. 1. – P. 26-35.

9. Aktas N., Croci E., Petmezas D. *Is working capital management value-enhancing? Evidence from firm performance and investments* // *Journal of Corporate Finance*. – 2015. – Vol. 30. – P. 98–113.
10. Baños-Caballero S., García-Teruel P. J., Martínez-Solano P. *How does working capital management affect the profitability of Spanish SMEs?* // *Small Business Economics*. – 2012. – Vol. 39, No. 2. – P. 517–529.
11. Kieschnick R., Laplante M., Moussawi R. *Working capital management and shareholders' wealth* // *Review of Finance*. – 2013. – Vol. 17, No. 5. – P. 1827–1852.
12. Gitman L. J., Zutter C. J. *Principles of Managerial Finance*. – 14th ed., Global ed. – Harlow: Pearson Education, 2015. – 850 p.
13. Brigham E. F., Ehrhardt M. C. *Financial Management: Theory & Practice*. – 15th ed. – Boston: Cengage Learning, 2017. – XXXII, 1180 p.